ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

UDK 373.091.3:5
ORCID:0009-0009-5794-1315

RAUPOVA SOJIDA ABDUVAITOVNA,
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: sojidaraupova38@gmail.com

XALQARO BAHOLASHDA MUVAFFAQIYAT KALITI: SINGAPUR, KOREYA, YAPONIYA VA FINLANDIYA TA'LIM TIZIMLARINING ILG'OR TAJRIBALARI

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashda dunyoning eng rivojlangan ta'lim tizimlari: Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya va Finlandiyaning ilg'or tajribalari chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu mamlakatlarning TIMSS xalqaro baholash dasturlarida qo'lga kiritgan ulug'vor yutuqlari, ularning o'ziga xos ta'lim metodlari va yondashuvlari bilan bog'lab ko'rsatilgan. Singapurning "spiral" o'qitish usuli, Koreyaning mehnat madaniyati va yuqori talabchanligi, Yaponiyaning dars tahlili an'anasi va eksperimentga asoslangan o'qitishi, Finlandiyaning individual yondashuvi va stresssiz ta'lim muhiti kabi o'ziga xos jihatlar batafsil ochib berilgan. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, bu mamlakatlarning xalqaro tadqiqotlardagi muvaffaqiyati tasodifiy emas, balki tizimli o'quv dasturlari, yuqori malakali o'qituvchilar tayyorlash, amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish metodlari, ilmiy fikrlashni rivojlantirish, doimiy baholash va takomillashtirish hamda keng jamiyat hamkorligi asosida shakllangan. Maqola O'zbekiston ta'limida sifat o'zgarishlarini amalga oshirish va boshlang'ich sinf o'quvchilarining xalqaro baholashlardagi tayyorgarligini oshirish uchun ushbu tajribalardan amaliy foydalanish yo'llari, shuningdek, milliy ta'lim tizimimizga moslashtirilgan samarali metodikalar haqida qimmatli tahlil va takliflar taqdim etadi. Bugungi kunda globallashuv, mehnat bozorining talablari ta'lim tizimiga yangi standartlarni joriy etishni yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda raqobatbardoshligi yuqori bo'lgan mamlakatlarda xorijiy tajribani o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

KALIT SO'ZLAR: *Xalqaro baholash dasturlari, TIMSS tadqiqoti, boshlang'ich ta'lim, Singapur ta'lim modeli, Finlandiya ta'lim tizimi, Yaponiya ta'lim metodikasi, Janubiy Koreya ta'lim tajribasi, ta'lim sifatini baholash.*

КЛЮЧ К УСПЕХУ В МЕЖДУНАРОДНЫХ ОЦЕНКАХ: ПЕРЕДОВОЙ ОПЫТ СИСТЕМ ОБРАЗОВАНИЯ СИНГАПУРА, КОРЕИ, ЯПОНИИ И ФИНЛЯНДИИ

АННОТАЦИЯ: В данной статье проводится углубленный анализ передового опыта наиболее развитых образовательных систем мира – Сингапура, Южной Кореи, Японии и Финляндии – в подготовке учащихся начальных классов к международным программам оценки. В статье показано, как выдающиеся достижения этих стран в международных программах оценки TIMSS связаны с их уникальными методами и подходами преподавания. Подробно освещаются такие характерные аспекты, как «спиральный» метод обучения Сингапура, трудовая этика и высокие требования Кореи, традиция анализа уроков и обучение на основе экспериментов в Японии, а также индивидуальный подход и без стрессовая образовательная среда Финляндии. Исследование показывает, что успех этих стран в международных исследованиях не является случайным, а формируется на основе систематических учебных программ, подготовки высококвалифицированных учителей, практико-ориентированных методов обучения, развития научного мышления, непрерывной оценки и совершенствования, а также широкого общественного сотрудничества. Статья предоставляет ценный анализ и предложения по практическим путям использования этого опыта для осуществления качественных изменений в системе образования Узбекистана и повышения готовности учащихся начальных классов к международным оценкам, а также эффективные методики, адаптированные к нашей национальной образовательной системе. В сегодняшних условиях глобализации и требований рынка труда необходимо внедрение новых стандартов в систему образования. В таких условиях изучение зарубежного опыта в высококонкурентных странах приобретает особое значение.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Международные программы оценки, исследование TIMSS, начальное образование, модель образования Сингапура, система образования Финляндии, методика преподавания Японии, опыт образования Южной Кореи, оценка качества образования.*

THE KEY TO SUCCESS IN INTERNATIONAL ASSESSMENTS: ADVANCED EXPERIENCES OF EDUCATION SYSTEMS IN SINGAPORE, KOREA, JAPAN, AND FINLAND

ABSTRACT: This article provides an in-depth analysis of the advanced experiences of the world's most developed education systems – Singapore, South Korea, Japan, and Finland – in preparing primary school students for

international assessment programs. The article demonstrates how the outstanding achievements of these countries in TIMSS international assessment programs are linked to their unique teaching methods and approaches. Distinctive aspects such as Singapore's «spiral» teaching method, Korea's work ethic and high demands, Japan's tradition of lesson analysis and experiment-based teaching, and Finland's individualized approach and stress-free learning environment are detailed. The research shows that the success of these countries in international studies is not accidental but is formed based on systematic curricula, training of highly qualified teachers, practice-oriented teaching methods, development of scientific thinking, continuous assessment and improvement, and broad societal cooperation. The article provides valuable analysis and suggestions on practical ways to utilize these experiences for implementing quality changes in Uzbekistan's education system and enhancing the preparedness of primary school students for international assessments, as well as effective methodologies adapted to our national education system. Today, globalization and labor market demands necessitate the introduction of new standards in the education system. Under such conditions, studying foreign experience in highly competitive countries is of particular importance.

KEYWORDS:*International assessment programs, TIMSS study, primary education, Singapore education model, Finland education system, Japan teaching methodology, South Korea education experience, education quality assessment.*


KIRISH. Singapur ta'lim tizimida 1-4-sinflar uchun dastur majburiy hisoblanadi, 5-6-sinflarda o'quvchilarga ko'p bosqichli dasturlar taklif etiladi. O'quvchilarga qiziqish hamda imkoniyatlariga qarab bir dasturdan ikkinchisiga o'tish imkoniyati beriladi [3].

O'quvchilarni baholashda ikkita asosiy maqsadga qaratiladi: nimani o'rgandi, nimani bajara oladi?

An'anaviy yozma testlardan tashqari qo'shimcha ma'lumot olishga imkon beradigan boshqa baholash usullardan foydalaniladi. O'quvchilarga kundalik hayot yoki real dunyo bilan bog'liq muammoli vazifalar beriladi. Baholash o'qituvchi topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchining kuzatishi, yechimni interaktiv tarzda sharhlashiga alohida e'tibor qaratiladi[4].

O'qituvchi o'quvchilarni o'z qarorlarini baholashga, kamchiliklarni aniqlashga va ularni bartaraf etish yo'llarini izlashga jalb etadi. O'quv jarayonining borishiga qarab, o'quv jarayonida baholash ham qo'llaniladi.

Maktablar har bir o'quvchining o'zlashtirishini tizimli ravishda kuzatib boradi va ota-onalar bilan yaqindan hamkorlik qiladi. Ota-onalar o'z farzandlarining yutuqlari haqida xabarlar, shaxsiy telefon suhbatlari, o'qituvchining uyda shaxsiy tashriflari va o'qituvchilar bilan maktabda ota-onalar yig'ilishlarida xabardor qilinadi.



1-rasm. Singapur ta'lim tizimi muvaffaqiyatining asosiy omillari

Singapurning 4-sinf tabiiy fanlar bo'yicha TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) tadqiqotidagi yutuqlari dunyo bo'yicha eng yuqori darajada baholanadi[10]. Bu muvaffaqiyatning siri bir nechta asosiy omillarda mujassam(1-rasm):

Kuchli va aniq yo'naltirilgan o'quv dasturi. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar o'quv dasturi tizimli, mantiqan izchil va konseptual ahamiyatga ega. Dastur asosiy tushunchalarni chuqur o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib, ma'lumotlarni yuzaki yodlashdan ko'ra tushunishga urg'u beriladi[11].

O'qituvchilarning yuqori malakasi. Singapurda o'qituvchilarni ishga qabul qilishda dastlabki tayyorgarlik, doimiy kasbiy rivojlanish, pedagogik

strategiyalarni chuqur o'rganish kabi yuqori talablar qo'yiladi. O'qituvchilar ilm-fanga asoslangan metodikani yaxshi bilishadi.

"Spiral" o'qitish yondashuvi. Biror mavzu boshlang'ich sinflarda soddalashtirilgan holda beriladi, keyingi bosqichlarda yanada murakkab va chuqur ko'rib chiqiladi. Bu esa o'quvchilarning konseptual fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Amaliyot va tajriba asosidagi yondashuv. O'quvchilar tajribalar, kuzatishlar va muammolar orqali darsda faol ishtirok etishadi. Bu yondashuv fanni real hayot bilan bog'laydi, ularning fanga oid qiziqishni oshiradi

Doimiy baholash va takomillashtirish. O'quvchilarning dars jarayonidagi faoliyati muntazam baholanadi, natijalar asosida o'quv dasturi va uslublar moslashtiriladi. Mamlakat miqyosida olingan ma'lumotlar asosida tizimli takomillashtirish ishlari olib boriladi.

Keng ijtimoiy va madaniy qo'llab-quvvatlash. Jamiyatda ta'limga nisbatan yuqori e'tibor mavjud bo'lib, ota-onalar, maktablar va hukumat o'rtasida hamkorlik mustahkam o'rnatilgan.


Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish yuqori darajada tizimlashtirilib, samarali yondashuvga asoslangan. Rasmiy tarzda 3-sinfdan boshlab fan sifatida o'qitiladi. 1-2-sinflarda o'quvchilarga atrof-muhit, tabiatdagi hodisalar haqida ma'lumot beriladi. "Science" fani 3-6-sinflarda haftasiga 2-2,5 soat hajmida o'qitiladi. Bunda o'quvchilarga nazariy bilimlardan tashqari, tajribalar va kuzatishlar asosida ilmiy fikrlash, jarayonni keng tahlil qilish, muammoni yechish kabi ko'nikmalar shakllantiriladi. Dars jarayonida o'quvchilar hodisani mustaqil kuzatish, savol berish, gipoteza ilgari surish, tajriba o'tkazish, xulosa chiqarish kabi bosqichlarni bajaradi. "Tabiiy fanlar" darsliklari zamonaviy uslubda tuzilgan bo'lib, rangli, rasm va sxemalarga boy, o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi. O'qituvchilar maxsus tayyorgarlikdan o'tgan holda so'rov asosida o'qitish metodikasidan foydalanadi. Bundan tashqari interfaol ta'lim vositalari, videolar, onlayn platformalar va boshqa texnologiyalar dars jarayoniga jalb etiladi.

Janubiy Koreya. Koreya ta'limning maqsad – barcha odamlarga o'z fe'l-atvorini yaxshilash, mustaqil hayot kechirish qobiliyatini rivojlantirish, demokratik jamiyatning malakali fuqarosi bo'lish, demokratik davlat qurishda faol ishtirok etish va insoniyatning gullab-yashnashiga yordam berishdir. Koreyada fuqarolik jamiyati yaratilgan bo'lib, u insonning butun hayoti davomida ochiq ta'limni yaratish va uning faoliyat yuritishi va rivojlanishi uchun resurslar bilan ta'minlashga yordam beradi.

O'quvchilar yutuqlarini shakllantirish va diagnostik baholash o'qituvchilar va maktab ma'muriyati tomonidan amalga oshiriladi. Baholashning bu turlari o'qituvchiga muayyan o'quvchining yutuq va kamchiliklari to'g'risida tezkor ma'lumot olish va unga o'z vaqtida yordam ko'rsatish, shuningdek, muayyan sinfda tashkil etayotgan o'quv jarayoniga tegishli tuzatishlar kiritish imkonini beradi. Baholash o'quv fanlari bo'yicha standartlarga erishishga, intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Maktablar turli materiallar va usullardan foydalangan holda, o'quv fanlari mamuniga muvofiq, ma'lum bir sinf darajasida o'quvchilarning muvaffaqiyat darajasini baholaydi. Boshlang'ich maktablar (1-6-sinflar) o'quvchilar tomonidan ko'rsatilgan individual natijalarni yozma ravishda qayd etishlari kerak, ular orasida:o'quvchining darsdan tashqari faoliyati, xarakter xususiyatlari va fanlar bo'yicha muvaffaqiyati. O'quvchilar asosan quyidagi fanlar asosida sinovdan o'tkaziladi: matematika, o'qish, yozish, tabiiy fanlar, ijtimoiy fanlar va boshqalar.

Janubiy Koreyada boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish tizimi sinf bosqichiga qarab o'zgaradi. 1-2-sinflarda tabiiy fanlar alohida fan sifatida emas, balki "Wise Life", ya'ni "Intellektual hayot" nomli ko'p fanli yondashuv doirasida tashkil etiladi. Ushbu dars haftada 6 ta 40 daqiqalik dars soatidan iborat bo'lib, o'quvchilarga hayot, tabiat, atrof-muhit va kundalik ko'nikmalarni birlashtirgan holda yetkaziladi. Bu bosqichda ilmiy uslub, nazariy konsepsiya emas, balki hayotiy bilim va ko'nikmalar asosiy e'tiborga olinadi. 3-4-sinflarda esa tabiiy fanlar alohida fan sifatida tanlab olinib, "Nature" yoki "Science" nomi bilan o'tiladi. Bunda ham haftada 6 ta 40 daqiqalik dars belgilangan bo'lib, o'quvchilarning ilmiy izlanish, kuzatish, tajriba va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Janubiy Koreyada boshlang'ich ta'lim bosqichida tabiiy fanlarni o'qitish inson va tabiiy muhit bilan bog'liq fundamental ko'nikmalarni rivojlantirishga mo'ljallangan hamda har ikki bosqichda an'anaviy fan darslariga nisbatan barqaror, aniq rejalashtirilgan yondashuv asosida tashkil etilgan. Janubiy Koreya ham TIMSS tadqiqotlarida ayniqsa 4-sinf tabiiy fanlar yo'nalishida yuqori natijalarga erishgan davlatlardan biridir. Ularning bu sohadagi yutuqlari tasodifiy emas, balki chuqur o'ylangan ta'lim siyosati, madaniy qadriyatlar va zamonaviy metodikalarga asoslangan(2-rasm). Quyida Janubiy Koreyaning TIMSSdagi muvaffaqiyatining asosiy omillari keltirilgan:



2-rasm. Janubiy Koreya ta'lim tizimi muvaffaqiyatining asosiy omillari

Tizimli va yuqori sifatli o‘quv dasturi. O‘quv dasturi aniq va mantiqiy tuzilgan bo‘lib, ilmiy asosga ega. Asosiy tushunchalar, sabab-oqibat munosabatlari va amaliy bilimlar o‘zaro uyg‘unlashtirilgan. Tabiiy fanlar maktab bosqichining boshidayoq chuqur o‘rgatiladi, bu esa o‘quvchilarda fanga oid bilimlarini mustahkamlaydi.

O‘qituvchilarning sifatli tayyorla-nishi. Janubiy Koreyada o‘qituvchi bo‘lish uchun katta raqobat bor, faqat eng yaxshi talabgorlar saralab olinib, ular kuchli pedagogika institutlarida maxsus tayyorlanadi. O‘qituvchilar doimiy ravishda kasbiy rivojlanishdan o‘tadi va zamonaviy metodlarni o‘zlashtiradi.

Fanlarni chuqur o‘rgatish va amaliy bog‘liqlik. Fanlar faqat nazariy ma'lumotlar asosida emas, balki hayotiy misollar, laboratoriya ishlari va kuzatuvlar orqali o‘rgatiladi. Bu o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va real hayotdagi hodisalarni ilmiy jihatdan tushunishiga yordam beradi.

Talabchanlik va mehnat madaniyati. Janubiy Koreyada uzluksiz ta'lim tizimi jiddiy qadrlanib, ota-onalar farzandlarining o‘qishiga katta e'tibor qaratishadi. O‘quvchilardan yuqori darajada intilish va mehnat talab etiladi. Tabiiy fanlar bo‘yicha mustahkam bilim olish jamiyatda muvaffaqiyat kaliti deb qaraladi.

O‘quvchilarda ilmiy fikrlashni rivojlantirish. Maktabda fanlarni o‘rgatishda asosiy e'tibor muammoni hal qilish, mantiqiy tahlil qilish, savol berish va javob izlashga qaratiladi. O‘quvchilar passiv emas, balki faol ishtirokchilar sifatida tarbiyalanadi.

Tahlilga asoslangan siyosat. Hukumat TIMSS kabi xalqaro tadqiqotlar natijalarini chuqur tahlil qiladi. Kamchiliklar aniqlansa, darhol o‘quv dasturida yoki o‘qituvchilarning tayyorgarligida zarur o‘zgarishlar kiritiladi.

Texnologik yondashuv va raqamli vositalar. Janubiy Koreya raqamli texnologiyalarni ta'limga keng jalb qilgan. Tabiiy fanlarni o‘rgatishda interaktiv darslar, video tajribalar, simulyatsiyalardan foyda-laniladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Bosh-lang‘ich maktabda bolalar hayot uchun zarur bo‘lgan asosiy ta'limni, o‘rta maktabda ular standart asosiy umumiy ta'lim oladi. O‘quvchilar yutuqlarini shakllantirish va diagnostik baholash o‘qituvchilar, maktab ma'muriyati tomonidan amalga oshiriladi. Bu turdagi baholashlar o‘qituvchiga muayyan o‘quvchining yutuq va kamchiliklari to‘g‘risida tezkor ma'lumot olish, unga o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish, shuningdek, muayyan sinfda tashkil etayotgan o‘quv jarayoniga tegishli tuzatishlar kiritish imkonini beradi[5].

Yaponiya. Yaponiya ham 4-sinf tabiiy fanlar bo‘yicha TIMSS xalqaro tadqiqotlarida muntazam yuqori o‘rinlarni egallab kelayot-gan mamlakatlardan biridir. Ularning bu sohadagi yutuqlari tasodifiy emas, balki chuqur o‘ylangan ta'lim siyosati, qadriyatlar va ilg‘or yondashuvlarga asoslanadi(3-rasm). Yaponiyaning TIMSSdagi muvaffaqiyatini tashkil etuvchi asosiy omillar:

Tabiiy fanlar uchun kuchli, chuqur va tizimli o‘quv

dasturi. Yaponiya o'quv dasturi konseptual tushunishga asoslangan bo'lib, barcha fanlar bosqichma-bosqich, mantiqiy izchillik bilan o'rgatiladi. Tabiiy fanlar erta yoshdan boshlab ilmiy metodlar asosida o'rgatiladi hamda faqat bilim emas, tadqiqot va kuzatish ko'nikmalari ham rivojlantiriladi.

Yuksak malakali o'qituvchilar. Yaponiyada o'qituvchilar puxta tanlanadi va doimiy ravishda malakasini oshiradi. Ular uchun kasbiy rivojlanish – majburiy va tizimli hisoblanadi. O'qituvchilar darslarni loyiha tarzida rejalashtiradi, bu esa dars sifatini yanada oshiradi.

Amaliy o'rganish va eksperimentlar. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar darslari tajriba, kuzatish va amaliy faoliyat bilan boyitilgan. O'quvchilar o'rganayotgan bilimlarini real hayot hodisalari bilan bog'laydi. Har bir darsda o'quvchi savol beradi, gipoteza ilgari suradi, kuzatadi va xulosa chiqaradi[6].


Ilmiy fikrlash va savol berishga rag'bat. O'quvchilardan dars jarayonida "nega?" va "qanday qilib?" degan savollarni berish kutiladi. Darslar faqat mavzuga oid ilmiy faktlarni yodlashga emas, balki ularni o'ylash va tushunishga yo'naltirilgan. Bu esa o'quvchilarda ijodiy va tahliliy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Dars tahlili madaniyati. Yaponiya o'qituvchilari o'zaro darslarini kuzatib, birgalikda tahlil qiladi, takomillashtiradi. Bu metod dars sifati va pedagogik uslublarni doimiy ravishda oshirishga xizmat qiladi.

Maktab va jamiyat hamkorligi. Ota-onalar farzandlarining o'qishiga jiddiy e'tibor beradi. Maktabda intizom, mehnatsevarlik va o'zaro hurmat qadriyatlariga alohida e'tibor qaratiladi. O'qituvchi – jamiyatda hurmatli va muhim kasb hisoblanadi.

Natijalarga emas, jarayonga yo'naltirilgan baholash. Yaponiya ta'limida asosiy e'tibor – o'quvchining tushunish darajasi va bilimining o'sishiga qaratilgan. Bunda natija emas, o'rganish jarayonining sifati muhim hisoblanadi.

Yaponiyada boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish sinf bosqichiga qarab tartibli ravishda tashkil etiladi. 1-2-sinflarda "Hayot va atrof-muhit" (Life and Environ-mental Studies) fanlari orqali tabiiy fanlarni o'rgatishga kirishiladi. Bu mustaqil fan sifatida bo'lmay, ko'p fanli interfaol yondashuv orqali amalga oshiriladi. Tabiiy fanlar ta'limining bu bosqichida ilmiy bilimlardan tashqari hayotiy tajriba va kuzatuv asosida ko'nikmalar shakllantiriladi. 3-sinfdan boshlab "Science" rasmiy fan sifatida joriy etiladi. 3-sinfda "Science" faniga ajratilgan yillik dars miqdori 90 ta 45 daqiqalik dars bo'lib, bu har hafta taxminan 2,6 darsga yoki 117 daqiqaga teng bo'ladi. 4-sinfda esa bu ko'rsatkich 105 ta 45 daqiqalik darsni tashkil etib haftasiga taxminan 3 ta dars, 135 daqiqa vaqt ajratiladi. Bu yondashuv o'quvchilarda ilmiy kuzatish, tajriba va tahlil ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Yaponiyada sinf bosqichlarini inobatga olgan holda tabiiy fanlarga ajratiladigan dars vaqtini qat'iy va aniq belgilash asosida o'quv jarayonining sifatini ta'minlashga qaratilgan.



3-rasm. Yaponiya ta'lim tizimi muvaffaqiyatining asosiy omillari

Finlandiya. Finlandiya ta'lim tizimi ko'pincha eng ilg'or va muvaffaqiyatli modellar qatorida tilga olinadi. TIMSS tadqiqotlarida doim eng yuqori o'rinda bo'lmasada, 4-sinf tabiiy fanlar yo'nalishida barqaror yuqori natijalarni ko'rsatib keladi (3-rasm).

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Finlandiyaning bu boradagi yutug'i test tayyorlovdan ko'ra haqiqiy ta'lim sifati, o'quvchiga e'tibor va o'qituvchining rolida mujassam. Quyidagilar bu muvaffaqiyatning asosiy omillari:

O'qituvchilik – yuqori maqomli kasb. Finlandiyada o'qituvchilar jamiyatda eng hurmatli kasblardan biri hisoblanadi. O'qituvchi bo'lish uchun magistratura darajasi talab qilinadi, bu nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarning uyg'unlashuvini ta'minlaydi. Ular darslarni mustaqil tayyorlaydi, o'quv dasturini moslashtirish huquqiga ega, bu esa darslarni jonli va moslashuvchan bo'lishiga olib keladi.

Fanga bo'lgan tabiiy qiziqishni rag'batlantirish. Tabiiy fanlar bolalarda raqobat yoki bosim orqali emas balki qiziqish uyg'otish orqali o'rgatiladi. O'quvchilarga o'rganish erkinligi berilib, savol berish, tajriba qilish, kuzatish va xulosa chiqarish orqali o'rganish rag'batlantiriladi. Har bir mavzuda "Nima uchun bu hodisa yuz berdi?" degan savollar diqqat markazida turadi[7].

Kam baholash – ko'proq o'rganishga vaqt. 4-sinfgacha o'quvchilarga formal baholar qo'yilmaydi, bu esa raqobatni kamaytirib, o'rganishga e'tiborni oshiradi. O'qituvchi har bir o'quvchining rivojlanishiga individual yondashadi.

Amaliy tajriba va muammolarni hal qilish. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar real hayotiy hodisalarga asoslangan. O'quvchilar tajribalar, tabiatdagi kuzatuvlar va sinfdagi muhokamalar orqali tushuncha va hodisalarni o'zlashtiradi. "O'rganish uchun o'rganish" emas, real hayotda ishlatish uchun o'rganish yondashuvi mavjud.


Stressiz va ijobiy ta'lim muhiti. Finlandiya maktablarida o'quvchilarga bosim qilinmaydi, balki xatolardan o'rganish madaniyati bor. Darslar qiziqarli, ko'p holatda ochiq havoda, tabiiy muhit sharoitida o'tkaziladi.

Ishonchga asoslangan tizim. Ta'lim tizimi o'qituvchiga to'liq ishonch bildiradi: qat'iy tekshiruvlar, reytinglar, standart testlar kam. O'qituvchilar o'quvchilarni baholashda ichki kuzatuv va tahlilga tayanishadi, bu esa yanada to'g'riroq rivojlanishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy tenglik va ta'limdagi adolat. Har bir o'quvchi u qanday ijtimoiy guruhdan bo'lishidan qat'i nazar, sifatli ta'lim olish huquqiga ega. Bu ta'limda barqarorlik va umumiy yuqori darajani ta'minlaydi.

Finlandiya ta'lim tizimida boshlang'ich maktab bosqichida (1-6-sinf) tabiiy fanlar integratsiya qilingan fanlar qatorida "Environment and nature studies" sifatida o'tiladi[8].

1-4-sinflar uchun tabiiy fanlarga aniq ajratilgan soatlar emas, balki umumiy integratsiyalashgan fan davrida o'qitiladi. Masalan, 1-2-sinflarda tabiatga doir mavzular butun "Environmental studies" darslarining bir qismi bo'lib, hayot, ekologiya, tabiat va inson muhitining turli jihatlari o'rganiladi.



4-rasm. Finlandiya ta'lim tizimi muvaffaqiyatining asosiy omillari

Haftasiga minimal dars vaqti bo'yicha 1-2-sinflarda 20 dars taxminan 15 soat, 3-sinflarda 22 dars (16,5 soat), 4-sinflarda 24 dars (18 soat) vaqt ajratiladi.

Finlandiyada boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar integratsiyasi asosida umumiy dars soatlari kam bo'lishiga qaramasdan ta'lim sifati yuqori bo'lishi ta'minlangan. Yondashuv o'quvchilarning tabiiy voqeliklarni tajriba va kuzatish orqali o'rganishga, ilmiy va kreativ fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlashda ilg'or xorijiy tajribalarni tahlil qilish O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining xalqaro baholashlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishda namuna sifatida amaliy mexanizmlar manbai sifatida qaraladi. Xorijiy tajribalarni har tomonlama puxta o'rganish va milliy ta'lim tizimiga tatbiq etish boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayyorgarlik darajasini takomillashtirish uchun xizmat qiladi. Xalqaro tadqiqotlarda yuqori natijalarga erishish darsliklardagi ma'lumotlar hamda test savollarini yodlash emas balki ko'nikma, funksional savodxonlikni shakllantirish asosida amalga oshiriladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyat qo'lga kiritish uchun kompleks yondashuv talab etiladi, bu esa nafaqat o'quv jarayonini, balki butun ta'lim tizimini takomillashtirishni nazarda tutadi. O'zbekiston uchun eng maqbul yo'nalish — bu xorijiy tajribalarni milliylashtirish asosida o'ziga xos samarali modelni yaratishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2022.

3.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. – Toshkent, 2021.

4.Raupova S.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlari tayyorlashda ilg'or xorijiy tajribalar // Mug'allim hem uzliksiz bilimlendirio'. – 2024. – №6/2. – B. 354-359.

5.Raupova S.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining aniq va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini shakllantirishda ilg'or xorijiy tajribalar // NamDU ilmiy axborotnomasi. – 2023. – №12. – B. 624-627.

6.Xidoyatov Z.X. Ta'lim sifatini baholashning zamonaviy usullari. – Toshkent: Fan, 2022. – 245 b.

7.Yusupova M.M. Xalqaro baholash dasturlari: nazariya va amaliyot. – Toshkent: O'qituvchi, 2023. – 187 b.

8.Barber M., Mourshed M. How the World's Best-Performing School Systems Come Out on Top. – McKinsey & Company, 2021. – 156 p.

9.Darling-Hammond L. The Flat World and Education: How America's Commitment to Equity Will Determine Our Future. – New York: Teachers College Press, 2022. – 394 p.

10.Hargreaves A., Fullan M. Professional Capital: Transforming Teaching in Every School. – New York: Teachers College Press, 2023. – 243 p.

11.Sahlberg P. Finnish Lessons 3.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? – New York: Teachers College Press, 2023. – 291 p.